

## KORRUPSION JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA TERGOVNI REJALASHTIRISH JARAYONI

*Toshkent viloyati yuridik texnikum o'quvchisi*  
**Abdimuminov Asadbek**

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada jinoyat ishi doirasida dalillarni faqatgina yig'ish emas, balki yig'ilgan dalillarni har tomonlama tekshirish, o'rganib chiqish va ularni jinoyat ishi holati bo'yicha to'g'ri baholash bo'yicha masalalar yoritiladi va takliflar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tergov, jinoyatchilik, dastlabki tergov rejasi, jinoyatni tergov qilishni rejalashtirish.*

Jinoyatni tergov qilish murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lib, tergovchidan yuqori saviyadagi tashkiliy va aqliy qobiliyatlarni talab qiladi. Tergov qilish jarayonining murakkabligi shundaki, jinoyat ishi doirasida dalillarni faqatgina yig'ish emas, balki yig'ilgan dalillarni har tomonlama tekshirish, o'rganib chiqish va ularni jinoyat ishi holati bo'yicha to'g'ri baholash zarur, chunki, jinoyatchilar ko'p hollarda sodir etgan jinoyatlarini yashirish uchun turli xil ayyorlik ishlatalardilar, ya'ni jinoyat izlarini turli usullar bilan yashiradilar, jinoyatga baxtsiz tasodif, o'z joniga qasd qilish yoki boshqa bir jinoyat ko'rinishini berishga harakat qiladilar hamda ba'zi hollarda jabrlanuvchi, guvoh va ish uchun daxldor bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan tazyiq o'tkazadilar.

Jinoyat huquqiy jihatdan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar doirasida surishtiruvchi, tergovchi va sud uchun jinoyatlarni ochish, jinoyatlarni tergov qilish va jinoyatlarni sodir etgan shaxsga nisbatan adolatli hukm chiqarish jarayonlarida qilmish doirasida aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham tergovchining sodir etilgan jinoyat doirasida o'tkazishi kerak bo'lgan barcha harakatlarini oldindan rejalashtirib olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tergov rejasini tuzish nafaqat korruption jinoyatlarni, balki barcha jinoyatlarni tergov qilish jarayonida ham tergovchi va prokuror tomonidan tergovni olib borishning rejasi tuzilishi mumkin va u og'zaki, yozma yoki ikkala shaklda bo'lishi mumkin. Shuningdek, tergovni rejalashtirishning amaliy va nazariy jihatdan olib qaraganda jinoyatlarni tergov qilishning rejasi o'zgaruvchan hisoblanib, u tergov jarayonida o'zgarishi va mustahkamlanishi mumkin.

Chunki, dastlabki tergov rejasini tuzishda faqatgina tipik tergov vaziyatidangina kelib chiqadi, ma'lumotlar kam bo'ladi yoki mavhumlikka asoslangan holda tuziladi. Lekin, umumiy maqsad va asos yagona bo'ladi. Tergov jarayoni davomida to'plangan ma'lumotlar asosida dastlabki mavhumliklarga aniqlik kiritiladi va dalillarni baholash va ularni tizimlashtirishga qaratilgan harakatlar bilan to'ldirilishi mumkin.

Shuningdek, ish bo'yicha haqiqat aniqlanganda, jinoyatning subyektining aybdorligi yoki aybsizligi to'lib aniq bo'lganda tergovning yakuniy bosqichida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni kiritish asosida tergov rejasiga o'zgartirish kiritish orqali mustahkamlab boriladi.

Jinoyatni tergov qilishni rejallashtirish – jinoyat-protsessual qonunchiligining talablari va hodisaning o'ziga xos shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda tergov vazifalarini, ularni yechish yo'llari va usullarini aniqlash, tashkil etish esa tuzilgan tergov rejasini optimal amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi, ya'ni ta'minlovchi xususiyat kasb etadi[1].

Har qanday kriminalistik faoliyatni rejallashtirish hech bo'limasa minimal boshlang'ich axborotga ega bo'lishni, yuzaga kelgan vaziyatga, yuzaga keluvchi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga to'g'ri baho berishni, alohida rejalar o'rtasida muvofiqlikni ta'minlashni, jinoyatni ochishda belgilangan vaqt chegarasini qat'iy hisobga olishni taqozo etadi.

Jinoyatlarini tergov qilish jarayonida tergovni rejallashtirish qay darajada ahamiyatli ekanligi haqida bir qator tadqiqotchi olimlar ham o'z fikrlarini bildirgan. Jumladan, tadqiqotchi olim N. B. Semyinaning fikricha, tergovni rejallashtirish tergovchining tergov faoliyatini teshkil etishning muhim va ajralmas elementi, uning usuli, shuningdek, jinoyatni tergov qilishning samaradorligi va sifatining zarur va muhim sharti[2].

E. V. Shishkinaning fikricha, jinoyatlarni tergov qilishni rejallashtirish tergovning asosiy tashkiliy usuli hisoblanib, u vositalarni mohirona taqsimlashda, maqsadlarga erishish yo'llarini aniqlashda, tergovchining ish vaqtini to'g'ri taqsimlash va uning mehnat unumdorligini maksimal darajada oshirish imkonini beradi[3].

Dubrovitskaya va I.M. Luzginning ta'kidlashlaricha, tergovni rejallashtirish - bu tergovning vazifalari, ularni hal qilish yo'llari va usullarini aniqlash uchun murakkab bo'lgan fikrlash jarayoni deya ta'kidlaydi.

N. P. Yablokovning ta'bıricha, jinoyatni tergov qilishni rejallashtirishni "tergovchining maqsadlarga erishishning eng maqbul usullarini aniqlashga qaratilgan murakkab aqliy faoliyati" deb tushunishni taklif qiladi[4].

R.R. Shakurov, A.M. Rahimov, Sh.T. Jumanov va N. Toshtemirovlarning ta'kidlashlaricha rejallashtirish tergov usuli emas, balki tergovni tashkil qilish vositasi sifatida ilgari surganlar. Shuningdek jinoyat ishida reja tuzish asosan: a) jinoyat ishining mazmuni bo'yicha, ya'ni sodir etilgan jinoyatning alohida epizodi b) ayblanuvchilarga nisbatan v) hudud bo'yicha qo'zg'atiladigan jinoyat ishlar bo'yicha tuziladi[5] degan g'oyani ilgari surgan.

Yuqoridaqgi olimlar tomonidan ilgari surilgan fikridan ko'rishimiz mumkinki, jinoyatlarni tergov qilishni rejallashtirish muayyan bir jinoyat doirasida tergov qilish muammolarini qo'yish va uni hal qilish jarayonlarida eng samarali bo'lgan usullarni belgilash bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Tergovchi ana shunday oldindan ishlab

chiqilgan tergov rejasiga amal qilish orqali yuzaga keluvchi vazifalarni o‘z vaqtida hal qilish, shu tariqa ilgari surilgan tusmollarni tekshirish, vaqtdan oqilona foydalanish, o‘z ish yurituvida bo‘lgan har bir jinoyat ishi bo‘yicha bir maromda ish olib borish, rejaga o‘z vaqtida tuzatish kiritish, olingen natijalarga aniq baho berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, tergovchi jinoyat ishi doirasida tergov rejasini tuzishda quyidagilarni nazarda tutgan holda tuzishi kerak bo‘ladi: birinchidan, boshlang‘ich axborotni tahlil qilishi va hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifani tavsiflashi kerak. Ikkinchidan, belgilangan vazifalarni amalga oshirish vaqt, joyi va ishtirokchilari. Uchinchidan, tergov harakatiga tayyorgarlik ko‘rishda o‘tkazilishi kerak bo‘lgan tadbirlar. To‘tinchidan, jinoyatni samarali hal qilishni ta‘minlovchi taktik usullarni tanlashi va zaruriy kriminalistik texnik vositalarni tanlashi kerak. Beshinchidan, tezkor vositalardan va oshkor etilishi mumkin bo‘limgan yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini belgilashi zarur. Oltinchidan, olingen natijalarni qayd etish usullarini nazarda tutishi kerak bo‘ladi. Amaliyotda reja odatda quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi: birinchidan, tekshirilishi lozim bo‘lgan tusmol va isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar, ikkinchidan, tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlaridan, shuningdek uchinchidan, jinoyatni tergov qilish uchun ijro muddati, ijrochi va izohlardan iborat bo‘ladi.

Ish bo‘yicha tergov qilish rejasini dastlabki tergov harakatlari o‘tkazilgandan keyin tuziladi. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishning o‘ziyoq, qoida tariqasida, tusmollar qilish va reja tuzish uchun zarur axborotlarni beradi. Odatda ishlarni, aytaylik, poraxo‘rlik jinoyatlari to‘g‘risidagi ishlarni tergov qilishda tergov rejasini jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun asos bo‘lgan hujjatlarda mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar asosidayoq tuzish mumkin. Biroq, dastlabki tergov rejasini qat’iy emas. Tergov qilish jarayonida uning doirasi kengayib yoki ayrim keraksiz deb hisoblangan qismlari olib tashlash hisobiga qisqarib, yangilanib borishi mumkin.

Korrupsion jinoyat ishi doirasida tergovchi tomonidan tuziladigan tergov rejasini har bir jinoyatning sodir etish vaziyatlari, jinoyatning o‘ziga xos xususiyatlari va mazmuni bilan bo‘gliq bo‘ladi. Jumladan, mazkur turdag‘i jinoyatlar pora oluvchi va pora beruvchini bevosita jinoyat ustida qo‘lga olingen vaziyatlar bo‘lishi mumkin yoki porani mansabdar shaxsga berish va pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlar sodir etish haqidagi ma‘lumotlar ancha vaqtdan so‘ng qabul qilinishi hamda pora oluvchi va pora beruvchi bu haqiqatni inkor etishi bilan bog‘liq vaziyatlarda yohud tashkilotning o‘zida, uning bo‘limlarida, shuningdek muayyan hududda pora berish va pora olishning ko‘plab faktlari aniqlangan, oddiy xodimlar va fuqarolar tomonidan rahbar xodimlarga pora berilayotgani haqida ixtiyoriy arizalar mavjud bo‘lgan vaziyatlar bo‘lishi mumkin. Tergovchi tomonidan jihatidan muayyan ish bo‘yicha tuziladigan tergov rejasini, bir necha ish o‘yicha tuziladigan tergov rejasini va jinoyat ishi doirasida ayrim tergov harakatlari uchun tuziladigan tergov rejalarini bo‘lishi mumkin.

Jinoyatlar doirasida tergovchi tomonidan tergov rejasini tuzishda o'ziga xos bo'lgan prinsiplar asosida tuziladi. Mazkur prinsiplardan eng asosiysi qonuniylik prinsipi hisoblanadi. Mazkur prinsipga ko'ra tergovchi tergov rejasini tuzishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslari talablari doirasida tergov harakatlarini amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirishni asoslash tamoyili. Rejada ko'rsatilgan hamma narsa etarli asosga ega bo'lishi, ma'lum ma'lumotlarga asoslanishi kerak. Tergovchi tomonidan ilgari surilgan versiyalar va aniqlanishi kerak bo'lgan tergov vazifalari mavjud ma'lumotlarni baholashdan kelib chiqishi kerak[6].

Jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirishning reallik prinsipi. Rejalarni tuzishda ular jinoyatni tergov qilish bo'yicha ish hajmini haqiqiy baholashdan, shuningdek, tergovchining kuchlari va imkoniyatlarini hisobga olishdan, foydalaniladigan texnik-kriminalistik vositalar va usullarni, tezkor xodimlar, ekspert-kriminalistlar va jamoatchilik bilan o'zaro aloqa qilish shakllaridan kelib chiqadi. Rejada ko'rsatilgan barcha harakatlar ular uchun real tarzda tergov rejasida belgilangan muddatda amalga oshirilishi kerak.

Tergovni rejalashtirishning individuallik prinsipi. Tergovchi jinoyat ishi bo'yicha tergov rejasini rejalashtirayotganda tergov qilinayotgan har bir jinoyat turining ham umumiyligi, ham alohida xususiyatlaridan kelib chiqib yondashishi zarur. Biron-bir jinoyat u bilan ayni bir turga mansub bo'lgan boshqa jinoyatni to'liq takrorlamaydi. Qilmishning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti yoki subyektiv tomonida alohida xususiyatlar hamisha mavjud bo'ladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga oluvchi tergov rejasi yuzaki emas, balki individual harakterga ega bo'ladi. Muayyan turdagagi jinoyatlarni tergov qilish namunaviy yo'nalishlari, usullari va vositalari to'g'risidagi kriminalistik tavsiyalar faqat ular yuzaga kelgan tergov vaziyati, muayyan huquqbazarlik xususiyatini hisobga olgan holda qo'llanilgan taqdirdagina samarali bo'ladi.

Jinoyatlarni tergov qilishni dinamik rejalashtirish tamoyili. Tergov jarayonida jinoyat ishi bo'yicha butun ish davomida o'zgarishsiz qoladigan, qat'iy reja tuzish mumkin emas. Chunki, bevosita faoliyatni amalga oshirish davomidagi ishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni ilgari noma'lum bo'lgan faktlar aniqlanganligi sababli, tergov holati obyektiv ravishda o'zgarib qolishi mumkin bo'lgan holatlarga bog'liq. Yangi ma'lumotlar va manfaatdor tomonlarning qarshiliklarini hisobga olgan holda, dastlabki tuzilgan rejani o'zgartirishlari, aniqlik kiritishlari va to'ldirishlari kerak bo'ladi, shuningdek undan keraksizlarni chiqarib tashlashlari kerak bo'ladi.

Jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirishda komplekslik va xolislik tamoyili. Bu tamoyil asosiy hisoblanadi, chunki yuqorida tamoyillarning deyarli barchasi shu tamoyil asosida qurilgan. Ushbu tamoyilni talqin qilishdagi muammolar fonda ushbu

ikkita asosiy atama “mavjudlik” ekanligi va “obyektivlik” noaniq talqin qilinadi. Komplekslik har bir vaziyatni barcha nuqtai nazardan har tomonlama o‘rganishni anglatadi va shunga mos ravishda tergov rejasiga chora-tadbirlarni kiritish ularning har birini tekshirish va obyektiv haqiqat va voqelikni xolislik ososida tekshirishdan iborat[7].

Jinoyatlarni tergov qilishni rejalashtirishning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha tamoyillari o‘zaro bir-biriga bog‘liq va aloqadordir. Ulardan ba’zilari boshqalarni to‘ldirib bir vaqtning o‘zida rejalashtirishning turli tomonlarini aks ettiradi. Ulardan bittasining buzilishi muqarrar ravishda boshqa tamoyillarni ham buzilishiga olib keladi. ularning barchasini muvofiqlik asosida rejalashtirish tergov ishini samaradorligini ta’minlash va shu orqali jinoyatlarni samarali tergov qilish va fosh qilish uchun imkonini beradi.

Muhtasar qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida tergovning amalga oshirish muddatlari keltirilgan bo‘lib, ushbu muddatlarga riya etmaslik protsessual qonunchilikni buzilishiga olib keladi. Shuning uchun ham tergovchi tomonidan jinoyatlarni tergov qilishning samaradorligini oshirish va qonun buzilishini oldini olish uchun tergovni amalga oshirish rejasini tuzib oladi. Bunday tergov rejali tergovchi tomonidan tipik tergov vaziyatlarini har tomonlama o‘rganib unga asosan tergov faoliyatni rejalashtirish va uni tashkil etishga alohida ahamiyat qaratishi lozim bo‘ladi. Bu esa jinoyat ishini tergov qilish, ochish va oldini olishda faoliyat samaradorligini oshirish, qonuniylik va adolatni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Kriminalistika. Darslik. A.K.Zakurlaev, D.B.Bazarova va b.q. – Toshkent: TDYU, 2015. – 180 bet.
2. Семьина, Н. Б. Основы планирования и программирования следственной деятельности: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2009.
3. Криминалистическая тактика / отв. ред. В. Н. Карагодин, Е. В. Шишкина. Екатеринбург, 1998.
4. Криминалистика / отв. ред. Н. П. Яблоков. М., 2005. С. 129.
5. Shakurov R.R., Rahimov A.M., Jumanov Sh.T., Toshtemirov N. Bir necha shaxslar tomonidan yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish xususiyatlari. O‘quv qo’llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasi, 2010- yil. 47 bet.
6. Планирование расследования: учебное пособие / Н.И. Долженко, Н.А. Жукова, И.А. Ярощук. – Белгород: ИД “БелГУ” НИУ “БелГУ”, 2021.
7. Курьянова, Ю. Ю. Принципы планирования расследования преступлений [Текст] / Ю. Ю. Курьянова // Сибирский юридический вестник. – 2009. – N 4 (47). – С. 78-83.